

Aleksandr Sergeyevich Pushkin (1799-1837)

- A.S.Pushkin xalq og'zaki ijodini bolalikdan berilib o'rgandi. Buloqdek qaynab-toshgan xalq og'zaki ijodi shoirning ilhomiga ilhom qo'shdi. Kelajakda mashhur shoir bo'lib, jahonga tanilishida boy manba bo'lib xizmat qildi. U, ayniqsa, o'zining ertak, dostonlari bilan yosh kitobxonlarning hurmat-olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda.
- A.S.Pushkin o'zining “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak”(1831), “Baliqchi ham baliq haqida ertak”(1833),”O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak”(1833), “Oltin xo'roz haqida ertak”(1834) kabi ertak – dostonlari bilan jahon bolalar adabiyoti xazinasini yanada boyitdi.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodi.

- “SHoh Saltan... haqida ertak ”,
- “Baliqchi ham baliq haqida ertak”,
- “O’lik malika va yetti bahodir haqida ertak”
- “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak”
- “Oltin xo’roz haqida ertak”

Nikolay Alekseyevich Nekrasov (1821-1878)

- Shoir rus bolalar adabiyotiga dehqon hayoti mavzuini olib kirdi. Bu jihatdan uning «Dehqon bolalari», «O'zi mitti-juda miqti», «Boshhoqlar», «Dehqon oilasi», «O'rilmagan er», «Qishloqda», «Daraxt kesish», «O'roqchi ayol», «Qishloqda mehnitning eng og'iri» kabi she'rlari diqqatga sazovordir.
- «Dehqon bolalari», «O'zi mitti-juda miqti», «Bolalar yig'isi» kabi she'rlarida bolalarning turli-tuman yumushlarni bajarib, tirikchilik qilganliklarini, ularni mehnatkash tabiati va og'ir qismatini chuqur xayrixoxlik bilan ifodalaydi. Endigina olti bahorni ko'rgan bolaning kattalardek fikr yuritishi, kishini hayratga soladi.

Nonxo'rlar egulik, ishlovchi kam,
Faqat ikki erkak: otam bilan man!

Lev Nikolaevich Tolstoy

(1828-1910)

- Tolstoy 1959-yildan e'tiboran o'z ona qishlog'i Yasnaya Poolyanada maktab ochib, muallimlik qilar ekan, o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham darslik va qo'llanmalarining yo'qligini, borlari ham bugungi kunning talablariga yaxshi javob bera olmasligini tajribasidan o'tkazdi. Endigina savod chiqarish ishiga kirishgan bolalarga mos ertak, hikoya, she'r, masal va hikoyalar darsliklarda o'z aksini topishi darkor deb tushundi hamda bu xayrli ishga qo'l urdi.
- Darslik juda og'ir ijodiy mehnat bilan 1872-yilda "Alifbe" nomi bilan nashr etildi. Dehqon bolalariga mo'ljallangan bu kitob "Alifbe" dan tashqari, ruscha o'qish uchun to'rt kitob, arifmetika va muallim faoliyatidan tashqari tashkil topgan edi. Bu darslik bolalarga hech qanday yengillik bermadi. Ayniqsa, badiiy asar ko'p bo'lsa-da, kitobda davr, zamon ruhi deyarli yo'q edi. SHu sabablarga ko'ra pedagog-olim qattiq tanqidga uchradi.

“Bog’bon va bolalar” hikoyasi

«Ko’chat ekish, bog’ qilish juda og’ir va mashaqqatli ish. Bu bog’bondan og’ir mehnat, sabr-toqat talab qiladi. Bog’bon o’zi uchun, kelajak avlod uchun ko’chat ekadi. Shu nuqtayi nazardan adibning “Mo’ysafid olma ekdi” hikoyasi diqqatga loyiqdir.

“Keksa berilib ko’chat o’tqazar edi. Odamlar uning keksaligidan va qilayotgan ishidan kulib:

Sizga olma ekish nimaga kerak bo’lib qoldi? Bu daraxt o’sib voyaga yetguncha bu dunyoda yashaysizmi yoki yo’qmi?-deyishdi.

Men olmasini yemasam, o’zgalar yeyishadi va menga rahmat deyishadi. Nima bo’lganda ham olmani ekkanim foyda, - debdi”.

Shukur Sa'dulla ijodining yana bir qirrasini satirik va yumoristik asarlari

- Shoir ijodida yumoristik she'rlar ham bir talay: «Shalabbo» «Anqov», «Injiq», «Ivirsiq», «Bizning oyi» kabi asarlarida shoir dangasa, o'z ustida ko'p ishlamaydigan, izlanishni yoqtirmaydigan, injiq, ivirsiq bolalar ustidan qattiq kuladi.
- Ivirsiqda shoir o'yinqaroq, kun bo'yi koptok o'ynab, uyga berilgan vazifani bajarish, o'z vaqtida uyqudan turish o'rniga qotib uxlab darsdan kech qolgan Siddiq nomli bolaning maktab o'quvchilariga xos bo'lmagan qiliqlarini fosh qiladi:
 - Daftari ochiq-sochiq,
 - Qolgan vazifa chala.
 - Soat yurar:: chiq-chiq-chiq,
 - Echilmagan masala.
 - Yana jaranglab soat,
 - To'qqizga zang uradi,
 - «Ivirsiqjon» betoqat -
 - Endi shoshiq turadi.
 -

Korney Ivanovich Chukovskiy (1882-1969)

- “Bolalar tili” asari ,
- “Timsoh” ertagi,
- “Archa” nomli to’plami
- “Moydodir”,
- “Suvarakxon” ertaklari
- “Kichik bolalar” kitobi bosilib chiqdi.
- “Pashsha-xarxasha”,
- “Barmaley”,
- “Telefon”,
- “Fedora o’tkazgan alam”,
- “O’g’irlangan quyosh”, “
- Doktor Voyjonim”, “
- Filinisa kitob o’qir”,
- “Kirpilar kuladi” asarlari

“Muraga “Ajoyib-g’aroyib daraxt”ertagini o’qib berganida u nima qildi?” she`ri

- Mura yechib tuflisin,
- Bog’ga ko’mib, der sekin:
 - O’s, o’saqol, tuflicham,
 - Bo’y cho’zaqol, tuflicham!
- Endi jajji tuflicham
- O’z qo’lidan suv ichar.
- Niholcham bo’lar daraxt,
- Ulkan, g’aroyib daraxt!
- Pishib bosonojkalar
- Daraxt sari yo’l olar,
- Qip-qizil sapojkalar.
- -Yulib oling!-deb qolar.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

- 1. Shoirning ozodalikka bag'shlangan qanday she'rlarini bilasiz?
- 2. “Suvarakxon” asarining tarbiyaviy ahamiyati nimada?
- 3. “Doktor Voyjonim” asaridan siz o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?